1985-2000-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TELEVIDENIYA VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI.

UBS Universiteti tarix yo'nalishi magistranti

Bobir To'ychiyev

Annatasiya: *Ushbu maqolada Sovet davri va mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda televideniya ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid bazi voqealar qaror qonunlar haqida telekanallar faoliyatiga oid jarayonlar haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar;Ommaviy axborot vositalari, O'zbekiston, SSSR , I A karimov televideniya , Kanallar.

Kirish

Televideniya va ommaviy axborot vositalari sovet davrida ham bugungi kunda ham xalq ongini manipulatsiya qilishning eng asosiy quroli hisoblanadi ularning faoliyatidan hokimyat va davlat boshqaruv sohasida xalq manfaatlariga emas ko'proq davlat manfaatini ko'zlab ishlaganligi bilinib turadi sovet ittifoqi 15 ta respubilkalarida kamunizm g'oyalari targ'ibotini yoyishda dastlab gazeta jurnallar 1940-1945 yillargacha faoliyati yuqori darajada tasir o'tkazish vazifasini bajardi lekin sovet ittifoqining XX-asr 2-yarimidan Televideniya orqali targ'ibotlar boshlandi endi har bir respubilkada markazdan uzatiladigan telekanallar faoliyati ancha kuchaydi bu esa xalqlarni boshqarishning eng muhim vositasi bo'ldi.

Televideniya faoliyatining eng gullagan davri 1985-yildan yani SSSRning qayta qurish siyosati bog'liq bo'ldi shu siyosat natijasida O'zbekiston SSRda milliy matbuot va televideniya islohotlari boshlandi bu yerda milliy qadryatlarga asoslangan turli xil tele eshtirish yoki ko'rsatuvlar O'zbekiston

xalqiga kunlik va haftalik tarzda namoyish etilib borildi odamlarimiz ura-ura zamon kelganligini anglab yetdilar lekin Sovet ittifoqi ommaviy axborot vositalari televideniya faoliyatini o’z qo’lida ushlab turgan edi ularning faoliyatiga yangi yangi cheklovlar joriy etdi Mamlakatdagi muammo va kamchiliklar haqida gapirmaslik davlat boshqaruvi faoliyatini tanqid qilmaslik xalqning ijtimoiy holatini efirga chiqarmaslik kabi cheklovlar joriy etildi O’zbekiston SSSRda 1989-yildan boshlab milliy telekanallar faoliyati shu davr ruhi bilan faoliyat olib bordi O’zbekistonda dastlab quyidagi telekanallar faoliyat olib bordi

- **Omad tv**
- **Tv 1**

Shular qatorida Sovet ittifoqining Vostok suniy yo’ldosh orqali butun mamlakat bo’ylab uzatiladigan **Perviy kanal** va **vremiya** telekanallari faoliyat olib bordi 1991-yil 21-Avgustda Quduratli SSSR quladi respublikalar tarqaldi va 1991-yilda 31-Avgust kuni O’zbekiston respubilkasi davlat Mustaqilikgi elon qilindi bu ommaviy axborot vositalari va televideniya faoliyatiga chinakamiga yangi davr yangi zamon kirib keldi bu ularning faoliyatida juda keng imkoniyat yaratdi.

qism.

O’zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyati yirik o’zgarishlar mustaqillikning 1992-yilda konustitusiyasi 15 bob 67-moddasi yangi qonun kiritildi “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga movfiq ishlaydi” qonun qabul qilindi bu televideniya faoliyatida yangi boshqichga chiqdi. O’zbekiston hududida yangi milliy telekanalar faoliyati yo’lga qo’yildi 3-moddada har bir fuqaro so’zini erkin bildirish huquqiga ega va davomida har bir ommaviy axborot vositalari tarqatayotgan malumotga o’zi javobgar bo’ladi

deb qo’yildi mustaqilik yillarida chiqarilgan qonunlar katta imkoniyatlar bergan bo’lsada lekin mamlakatimiz va uning atrofidagi voqealar televideniya faoliyatini cheklab turishga asos bo’ldi lekin davlat ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo’l qo’ymadi chunki 4-moddada Davlat tomonida ommaviy axborot vositalari va televideniya faoliyatini Senzura qilish rasman taqiqlanadi deb keltirilib o’tilgan edi. 1992-yilda O’zbekistonda Televideniya faoliyatini kengaytirish bo’yicha prezident I A Karimovning farmoni elon qilindi unga ko’ra O’zbekiston davlat teleeshtirish kompaniyasi tashkil etilib xususiy sektor jalb etilib yangi uskunalar yangi rangli kameralar dunyoga mashhur kompaniyalardan sotib olindi va O’zbekistonda 1993-yilda Omad TV kanali o’z faoliyatini boshladi natijada istedodli televideniya sanatini yaxshi biladigan ijodkorlar kela boshladi ular dastlab xorijiy tajribani o’rgandilar turli dasturlardan andoza olib tele shoular tashkil qildilar raqobat kuchaydi va tez orada poytaxtimiz Toshkentda yangi studiya “Toshkent studiyasi “ ish boshladi sekin asta xalq xorijiy telekanallardan mahalliyga o’tish boshladi milliy ko’rsatuvlar soni oshdi bu esa yangi-yangi telekanallar yaratishga zamin hozirladi 1994-yilda vazirlar mahkamasi qarori qabul qilinib dasturlar soni oshdi moddiy texnik bazasi yaxshilandi bu muxbirlar faoliyatida ulkan yutuqlarga erishishda katta imkoniyat bo’ldi O’zbek tilida dasturlar namoyish etila boshlandi respubilkaning barcha hududlari aholisi Ijtimoiy siyosiy iqsodiy o’zgarishlardan ko’proq xabardor bo’lib turdilar lekin davlat tashkilotlari rahbarlari televideniya orqali edirga chiqishi qatiyan taqiqlab qo’yildi bu holat aholida davlat idoralari rahbarlariga nisbatan shubhalar uyog’oti mustaqillikning dastlabki 5-10 yili davomida Televideniya xodimlarining davlat idoralari rahbarlaridan iteryu olishi taqiqlab qo’yildi nima uchun bunday qilingani izohlab berilmadi televideniyada faqat mamlakatning ijobiy holati namoyish etib borildi lekin xalqning ahvolini qaday o’tayotganini uning o’zi bilardi bu mustaqillikga erishganiga endi 5 yil bo’lgan davlat iqtisodiy ahvoli ham yaxshi emasdi bozor iqtisodiyotiga o’tish

boshqichma- boshqich davom etardi davlat uchun televideniya xalqni nazorat qilish vazifasini yaratdi bu esa ularning faoliyatida yangi raqobatlar yaratilishiga olib keldi 1996-yildan milliy teleradiokompaniya nomi berilib hududiy bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Televideniya faoliyati mustaqil O'zbekistondagi islohotlarni yoritibgina qolmay mamlakat ichida faoliyat olib borayotgan xorijiy telekanallar bilan raqobatga kirishdi aholining katta qismi

rus tilini yaxshi bilganligi uchun asosan Rossiya telekanallarini kuzatishardi davlat aholini bundan cheklay olmas edi shuning uchun yangi telekanallar yaratish ustida ish olib bordi va 1998-yilda ijtimoiy – siyosiy vaziyatni yanada sog'lomlashtirish diniy aqidaparastlik g'oyalaridan asrash chora tadbirlari to'g'risidagi 130-sonli qaror elon qilindi unung natijasida shu yilning 1-Sentabridan O'zbekistonda "Yoshlar telekanali" faoliyatini boshladi bu yoshlarga bo'lgan etiborning kichik bir ko'rinish hisoblanadi telekanalda turli dasturlar ko'rsatuvlar namoyish etilardi ulardan eng mashhuri davr information axborot dasturi bo'lib u kunlik va haftalik yangiliklarni elon qilar edi bundan tashqari ko'rsatuvlardan eng tarbiyali milliy qadiryatlarga mosi "Otalar so'zi'' bo'lib u har kuni qisqa qisqa namoyish etiladi bu ko'plab mahalliy aholining qalbidan chuqur joy oldi O'zbekiston televideniyasi yangi davr XXI-asrga qadam qo'ydi albatta bu ulardan yangi zamonaviy dunyo qarashni shaklantirish va davlatning demokratik islohotlarini aholiga yetkazishda yangicha ishlash mexanizmiga o'tishni taqozo qiladi ko'rsatuvlar studiyasi asrga mos qilib o'zgartirildi bu paytda O'zbekistonda moliyaviy holat ham o'tgan davrga nisbatan ancha yaxshilandi Telekanalar faoliyatini kengatirish maqsadida O'zbekiston milliy Universiteti jurnalistika fakulteti faoliyatiga etibor kuchaydi haqiqiy professional junalist kadrlar tayyorlanib borildi mamlakatda axborotlar matbuot va televideniyada 2 ta tilda O'zbek va

Rus tillarda aholiga namoyish etardi bu mamlakatda boshqa millatlarga ham axborotlarini yetkazish vazifasini bajaradi telekanallar aholi ijtimoiy hayotiga ham ijobiy tasir o'tkazdi milliy ruh milliy dunyoqarash shaklanishida juda katta rol o'ynadi milliy filmlar namoyishlari ham yo'lga qo'yildi bu aholini qisman bo'lsa ham xorijiy telekanaldan uzoqlashtiridi aholi ongida milliy g'oya vatanga muhabbat tuyg'ulari paydo bo'ldi O'zbekiston teleradiokompanoyasi tomonidan yangicha g'oyadagi milliylikni aks etiruvchi hajviy rukndagi ko'rsatuvlar aksiya sa'natiga oid ko'rsatuvlar keng yoritib borildi bu xalqning milliy qadryatlarni qayta uyg'otishga katta omil bo'lib hizmat qildi mustaqilikning birinchi hukumat davrida faoliyat olib borgan bazi jurnalistlarning so'zlariga ko'ra davlat rahbari ommaviy axborot vositalari faoliyatini erknlashtirish bo'yicha qarorlar chiqarsa ham ular hech qahon erkin faoliyat olib bormaganligini takidlaydi.[1]

Televideniyening madaniy – ma'rifiy vazifasi vazifa tomoshabinlar uchun

mo'ljallangan barcha dasturlar mazmunini o'zida ifoda etadi. Biroq televideniyeda shunday dasturlar va muhim kanal borki, aynan ular teleauditoriyani fan va madaniyat yutuqlari bilan tanishtirib boradi Televideniye kino, teatr san`atlari ifoda vositalaridan foydalanibgina qolmay, o`z imkoniyatlarini kashf qildi. Adabiy teatr, bir aktyor teatri, tok-shou, turli-tuman muloqotlar va boshqa ko`p janrdagi ko`rsatuvlar televideniye tufayli

paydo bo`ldi undagi Televizion ko`rsatuvlarning g`oyaviy-badiiy yo`nalishi, uning sifati, haqqoniyligi, hayotni to`g`ri va aniq aks ettirishida rejissor shaxsan masuldir Milliy va diniy xususiyatlardan tashqari odamlarning ijtimoiy-psixologik, yoshidagi tafovutlarga qarab ijtimoiylikka e'tibor beradilar Televideniyening ijtimoiy-pedagogik vazifasini boshqacha qilib aytganda, boshqaruvchi vazifa desa ham bo'ladi. Chunki televideniyening

[1] Rahmatullayeva I. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK TELEVIDENIYESI: YANGI DAVRNING TELEIJODIYOTGA TA'SIRI \\ O'zbekistonda xorijiy tillar. 2024

aholiga ta'siri siyosiy va ma'naviy qadriyatlarning targ‘ibi bilan birgalikda amalga oshadi. Uning darajasi esa har bir davlatning xarakteri, targ‘ibot va ta'sir ko‘rsatish uslubiga bog‘liq O‘zbekiston teleradiokompaniyasini boshqarishning mavjud tizimi, boshqaruv tuzilmalaridagi bir-birini takrorlash va parallelizm, teleradiokanallarning huquqiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil emasligi teleradio industriya bozorini rivojlantirishga, g‘oya va dasturlarning ijobiy raqobatiga to‘siq bo‘lmoqda. Moliyalashtirish tizimining markazlashtirilgani, teleradioeshittirish sohasi mutaxassislarining ijodiy va texnik xizmatlariga yangi dastur va loyihalarni amalga oshirishga jamoalar qo‘shgan aniq hissasini hisobga olmay turib, haq to‘lanayotgani O‘zbekiston teleradiokompaniyasi jurnalistlari va boshqa xodimlarining yuqori unum bilan, ijodiy tashabbus va faollik ko‘rsatib mehnat qilishiga yo‘l bermayapti. 1991-yildan boshlab mustaqillik tufayli madaniy meros va an’analarimizga munosabat ham tubdan o‘zgardi. Ilgari qoralanib kelgan shaxslar, tarixiy obidalar, kitoblar o‘zining haqiqiy egalariga qaytarib berildi. Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi buyuk zotlar ijodini yangicha o‘rganishga, ularning obrazini yangicha yaratishga kirishildi.Televideniyedagi obrazlar modifikatsiyasi aynan mustaqillik yillarida boshlangan Bu davrni birinchi prezident bilan bog‘laymiz. Bu yillar zangori ekranda asosiy o‘rinni ziyolilar qatlami (adiblar, jamoa arboblari, san’at vakillari) egalladi.[2] Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, noshirlik va matbaa faoliyatini rivojlantirish, so‘z va axborot erkinligini ta’minlash borasida 10 dan ziyod qonun va 100 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilindi. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni to‘liq va samarali amalga oshirmayotgani bois bozor munosabatlari sharoitida ommaviy axborot vositalariga uslubiy yordam ko‘rsatish, ularning ishini prinsipial jihatdan kuzatish, baholash, tahlil qilib

[2] Mamataliyeva Sh. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA RADIO VA TELEVIDENIYENI TUTGAN O‘RNI: kurs ishi

borish, zarur hollarda qo‘llab-quvvatlash yoki iqtisodiy, huquqiy choralarni qo‘llash kabi amaliy mexanizmlarning ta’siri deyarli sezilmadi. Natijada ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar tomonidan o‘zining nizom talablariga to‘g‘ri kelmaydigan, milliy qadriyatlarimizga zid, g‘oyaviy hamda matbaa sifati past mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va matbaa korxonalarini ro‘yxatga olish, noshirlik faoliyatini lisenziyalash hamda ularning faoliyatini monitoring qilish bo‘yicha tegishli talabga amal qilinmayotganlik holati kuzatildi. konstitutsiyaviy tamoyilga muvofiq, jamiyatning zarur axborotlardan xabardorligini ta’minlashga qaratilgan qator qonun hujjatlari va dasturlar qabul qilindi. [3] 2000-yilga kelib O’zbekiston televideniyasi yangi boshqichga chiqdi endi ular faqat Rossiya bilan emas Turkiya , koreya , va yevropa davlatlari televideniyalarining tajribalarini o’rganib yanada zamonaviy bo’lgan ko’rsatuvlar yangi studiyalar bilan mahalliy va xorijiy xabarlarni aholiga yetkazib bera boshladilar bu chinakamiga yangi davrning boshlanishi edi buning ustiga mamlakatning bazi sohalarida ulkan o’zgarishlar yuz berayotgan Sa’nat , sport , hunarmandchilik kabi sohalar XXI-asr ruhida yangi boshqichga ko’tarilayotgan O’zbekistonning dunyoga tanilayotgan bir davri edi Televideniya sohasida yangi yangi yo’nalishlar paydo bo’la boshladi lekin shu yillarda ham jurnalistlar uchun so’z erkinligi yoki mustaqil va xususiy telekanallar faoliyati deyarli yo’lga qo’yilmadi bu mamalakat iqsodiyoti bilan bog’liq holat jurnalistlar faoliyatiga to’sqinliklar hali hamon davom etayotgan bir davr edi bu davrda O’zbekiston hududida faoliyat olib borgan xalqaro telekanallar va ularning jurnalistlari davlatdan chiqib ketishga majbur qildi keyinchalik ular xorijda tele jurnalistik faoliyatlarini davom etirdilar.

O`zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi senzuraga yo`l qo`ymadi Axborotni qidirish, olish, berish, ishlab chiqarish, va tarqatishning qonuniy

[3] Maxsumova R. O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TASHKIL QILISH ASOSLARI.\\ Innovative educational natural and social sciences.2021

shakli davlatga tegishli yoki qonun bilan maxsus qo`riqlanadigan sirlarni mumkin emasligi e`tirof etildi Shuningdek OAVni jinoiy javobgarlikka tortiladigan maqsadlar yo`lida, masalan, hokimiyatni egallashga qaratilgan chaqiruvlar, konstitutsion tuzumni kuch ishlatish yo`li bilan o`zgartirish; milliy, sinfiy, ijtimoiy, diniy adovatni keltirib chiqaradigan materiallar: urushni propoganda qiluvchi pornografik, yovo`zik va bosqinchilikni targ`ib etuvchi programmalarni tarqatishi taqiqlangan. Shuningdek maxsus OAVlarga tegishli axborot tekstlarini tele-, video-, kinoprogrammalarda, xujjatli va badiy filmlarda, shuningdek kompyuter axborot fayllarida va axborotni qayta ishlash

programmalarida foydalanish, insonlar ongiga ta`sir etuvchi va sog'lig'iga zarar yetkazuvchi yashirin ma`lumotlar tarqatish, yashirin audio va video tasvir, kino va foto syomka yordamida tayorlangan, mavjud jurnalist huquqi yordamida ijtimoiy muhim bo`lgan ma`lumotlarni buzish, ishonchli manba tariqasida mish-mish tarqatish, boshqa shaxsiy yoki organizatsiya uchun ma`lumot to`plash taqiqlanadi. Jurnalistlik huquqini shuningdek shaxsiy yoki

fuqarolarning ayrim toifalarini jinsi, yoshi, irqiy yoki milliy kelib chiqishi, tili va diniga munosabati, kasbi, yashash joyi, hamda siyosiy qarashlari bilan bog`liq bo`lgan ma`lumotlarini kamsitish yo`lida ishlatish taqiqlanadi Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda OAV alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri) 5-moddasi «Ommaviy axborot vositalari erkinligi» deb nomlangan bo'lib, uning ikkinchi bandi quyidagicha: «Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir»[4] deyiladi.

[4] Raxmatulloyev M,X MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI TARIXI // Образование и инновационные исследования. 2023 №1

Xulosa

Televideniya sohasida shu 15 yillik davr nuqtayi nazaridan xulosa qiladigan bo'lsa bu sovet davridagi o'zbekistonning hamda mustaqil bo'lgandan keyingi O'zbekistonning media ommaviy axborot va televideniya sohasidagi islohotlar bir oz farq qiladi bu farqlar bazida sovet davri O'zbekistondagi voqealarga cheklovlarga juda o'xshash mustaqil O'zbekiston respubilkasi televideniyasi faoliyatida uzoq 25 yil davomida cheklovlarning ushlab turilishi yoki qonunan O'zbekiston respubilkasida ommaviy axborot vositalari erkindir deyilsada amalda ularning faoliyatiga ko'plab cheklovlar so'z erkinligi masalalari borasida cheklovlar kuzatilgan va shu bilan birga mamlakatda xorijiy medialar faoliyat olib bormagan dastlabki 10 yilik davrda O'zbekiston respubilkasi bazi siyosiy voqealar natijasida yopiq siyosat olib borilgan deyiladi ammo bu televideniya sohasiga ham tasir qildi garchi o'z milliy telekompaniyasini va telekanallarini yaratgan bo'lsada o'zbekiston mustaqillikning dastlabki 10 yilda televideniyadan davlatning ichki siyosatida bo'layotgan voqea hodisalardan xalqni chalg'itish ularning ongini manipulatsiya qilish sifatida foydalandi va buni uddaladi O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng ham asosan SSSRning vorisi sifatida e'tirof etiladigan Rossiya federatsiyasi televideniyasi va media makonidan chiqib ketolmadi bu keyinchalik uzoq vaqt saqlanib qoldi va davom etmoqda buning asosiy sababi aholining katta qismi rus tilini yaxshi bilishi bilan izohlanadi siyosiy tomondan televideniya orqali ham Rossiya o'zbekiston aholisiga jiddiy tasir o'tkaza olishdi davlatimiz esa 10-15 yil ichida 30-38 mln aholida vatan tuyg'usi milliy mafkura va g'oyalarni shaklantirishda qiyinchiliklarni boshidan o'tkazdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rahmatullayeva I. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK TELEVIDENIYESI: YANGI DAVRNING TELEIJODIYOTGA TA'SIRI \\ O'zbekistonda xorijiy tillar. 2024

2. Mamataliyeva Sh. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA RADIO VA TELEVIDENIYENI TUTGAN O‘RNI: kurs ishi.

3. Maxsumova R. O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TASHKIL QILISH ASOSLARI.\\ Innovative educational natural and social sciences.2021

4. Raxmatulloyev M,X MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI TARIXI // Образование и инновационные исследования. 2023 №1